

MAKTAB NIMA UCHUN KERAK?




Ulug'bek yulduzlari



Buyuk hukmdor va alloma **Mirzo Ulug'bek** yoshligidan ko'p vaqtini kutubxonada o'tkazar, tinmay kitob o'qir edi. Bu kitoblarni uning otasi va bobosi to'plagan edi. Mirzo Ulug'bek, ayniqsa, matematika va astronomiyaga qiziqardi.

Yulduzli osmonni o'rganish Mirzo Ulug'bek hayotining mazmuni edi. Shuning uchun u Samarqandda o'zi orzu qilgan inshoot – yulduzlarni kuzatish uchun mo'ljallangan **rasadxona** qurdirdi. Uning rasadxonasi o'sha paytda dunyodagi eng mukammal astronomiya asbob-uskunolari bilan jihozlangan edi.

Uning rahbarligida rasadxonaning asosiy ilmiy asari – “Ulug'bekning yulduzlar jadvali” (“Ziji Ko'ragoniy”) tuzildi. Yulduzlarning joylashuvi tarixda ilk bor aynan ushbu kitobda aniq tasvirlandi. Bu esa astronomiya uchun katta ahamiyat kasb etdi.



Ulug'bek rasadxonasi



1. Mirzo Ulug'bek rasadxonasi qaysi shaharda joylashgan?
2. Mirzo Ulug'bek ilm-fan taraqqiyotiga qanday hissa qo'shgan?



Men **neytron yulduzlarni** o'rganaman. Neytron yulduzlar koinotdagi eng kichik, eng zich yulduzlardir.

Bugungi kundagi ilmiy kashfiyotlar tadqiqotchilar jamoasining mashaqqatli mehnati mahsulidir. Olim hatto daho bo'lsa ham, bir o'zi to'laqonli tadqiqot olib bora olmaydi.

Zamonaviy olim butun dunyodagi tadqiqotchilar bilan doimo muloqot qilib turishi shart.



Ahmadjon Abdujabborov,
fizika-matematika fanlari doktori, professor



Qadimgi va bugungi kundagi olimlarning o'xshash va farqli jihatlari nimada deb o'ylaysiz?



O'ylab ko'ring va gaplarni to'ldiring.

Endi men ... ekanligini bilib oldim.
Men uchun ...ni o'rganish juda qiziq.



Uyingiz yoki maktabingiz kutubxonasidan foydalanib, bilim haqida uchta maqol toping.

